

TERRORIZM TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOSLIGI

Aytimbetov Utkir Pulatovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish tushunchasi, ularning mazmun-mohiyati va bu haqida tadqiqotchilarning fikrlari, uning bugungi kundagi holati va uning yanada avj olishiga nimalar sababchi bo'layotganligi hamda statistik ma'lumotlar.

Kalit so'zlar: terrorizm, ekstremizm, din, islom.

Bugungi kundagi globallashuv sharoitida hamda xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan nizoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg'unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

“Terrorizm” bu - siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va terrorchilar uchun foydali bo'lgan boshqa natijalarga erishish maqsadida shaxslarga, shaxslar guruhlariga yoki turli obyektlarga nisbatan zo'ravonlik qo'llash yoki uni qo'llash tahdidi sifatida qaraladi. Shu sababli terrorizm kabi vayronkor g'oyalarni yoqlaydigan jamoa va tashkilotlarning a'zolari tomonidan zamonaviy axborot vositalaridan foydalanib, din niqobi ostida yoshlarimizni zo'ravonlikka, milliy o'zlik va oilaviy qadriyatlarni yo'qotishga undash harakatlari bilan jamiyatda murosasizlik, buzg'unchilik va radikal qarashlarning tarqalishi harakatlari davom etayotganini kuzatish mumkin. Bunday harakatlar zamirida esa terrorchi tashkilotlarning o'z safini yanada kengaytirish maqsadlari borligi namoyon bo'lmoqda.


Terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati– uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. Terrorchilik harakatining eng dahshatli ko'rinishlaridan biri o'zini avvaldan o'limga tayyorlagan terrorchi-kamikadze¹ tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin. 1999-yil 16-fevral kuni Respublikamizning poytaxti Toshkent shahrida, 2000-yil Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hududlarida, 2004-yil 27-31-mart kunlari Toshkent shahar, Toshkent va Buxoro viloyatining bir necha nuqtalarida hamda 2005-

¹**Kamikaze** (yaponcha: 神風, kamikaze, simpu; kami — „iloh“, kadze — „shamol“) — „ilohiy shamol“, mo'g'ul xoni Xubilayning Yaponiya qirg'oqlariga yaqinlashgan kemalarini ikki marotaba yo'q qilgan tayfunning nomi.

yil 13-may Andijon shahrida sodir etilgan qo'poruvchilik harakatlari bunga yaqqol misol.

Bundan tashqari terrorizmni ekstremizmning yakuniy shakli sifatida ham qarash mumkin. Bunda kelib chiqadiki, terrorizm bu yakuniy bosqich bo'ladigan bo'lsa, umumiy qilib ularni 4 ta bosqichga bo'lib o'rganamiz.

Bular:



kabi ko'rinishda yuzaga keladi.

Tadqiqotchilar terrorizm va ekstremizmning beshta asosiy manbasini aniqladi unga ko'ra:

1. Terrorizm va ekstremizm o'zgarishlar, keskin ijtimoiy o'zgarishlar yo'liga o'tgan jamiyatlarda yoki aholining etnik-ijtimoiy xususiyatlari bo'yicha aniq qutblanishi kuzatilgan zamonaviy postmodern² jamiyatlarda namoyon bo'ladi. Aholining marginal va harakatsiz guruhlari terroristik harakatlar ishtirokchisiga aylanadi.
2. Ijtimoiy qarama-qarshiliklar, jamiyatning nafaqat qashshoqlik yoki ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi emas, balki kambag'al va boylarga keskin tabaqalanishini agressiyani qo'zg'atadi va terrorizm uchun zamin yaratadi.
3. Ekstremizm ko'rinishlari ijtimoiy modernizatsiyaning dastlabki davrlarida kuchaymoqda.

²Postmodernizm - bu 17-asrdan boshlab [ma'rifatparvarlik ratsionalligi](#) bilan bog'liq dunyoqarashlarga qarshi chiqadigan intellektual pozitsiya yoki nutq uslubi.

4. Tugallanmagan urbanizatsiya, sanoatlashtirishning o'ziga xos shakllari, jamiyatning etnodemografik tarkibidagi o'zgarishlar, ayniqsa tartibga solinmagan migratsiya jamiyatda ekstremizm va murossasizlikni keltirib chiqarmoqda.

5. Islom olamida etnik va diniy ekstremizm va terrorizmning tarqalishida avtoritar siyosiy rejimlarning ustunligi muhim rol o'ynaydi. Ular siyosiy qarama-qarshiliklarni hal qilish shakli sifatida zo'ravonlikni qo'zg'atadi va unga madaniy norma xarakterini beradi.

So'nggi yillarda avj olib borayotgan va shu bilan birgalikda butun dunyo muammolariga aylangan terroristik holatlar bo'lib kelmoqda. Ular o'zlarining saflarini yanada kengaytirish maqsadida bugungi kundagi barcha shart-sharoitlardan foydalanib o'zlarining qabih ishlarini ko'paytirish uchun ular jamiyatning eng nozik nuqtasi va endi o'sib kelayotgan voyaga yetmaganlardan, o'smirlardan va talabalardan foydalanib ularning ich-ichiga kirib, dardlariga darddosh bo'lib, har taraflama ularning xatti-harakatlari noto'g'ri bo'lsa ham to'g'ri deb ularning oldida eng yaqin do'st sifatida o'zini gavdalantirmoqda. Shu orqali keyinchalik bu kabi o'zining to'riga ilinayotgan bolalarni keyingi bosqichga o'tib ularni o'z ota-onalariga yoki boshqa uni hali "yosh bola" deb biluvchi odamlarga qarshi qo'yib ularning o'rtasiga chang sola boshlaydi yoki o'sha bolaning hali diniy bilimlari kam va yetarli bo'lmaganligidan foydalanib ularga boshida din haqida to'g'ri ma'lumotlar berib keyinchalik ularga o'zlarining ekstremistik g'oyalarini singdira boshlaydi.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

Terrorizmning jamiyatga zararlari oqibatlarini quyidagicha keltirish mumkin:

- begunoh odamlarning qoni to'kilishi;
- mol-mulklarga zarar va talofat yetkazilishi;
- jamiyatda xavf va qo'rquv paydo bo'lishi;
- davlat va rahbarlarga isyon;
- tartibsizliklar kelib chiqishi;
- tarqoqlik va bo'linish.

Shu bilan birga xalqaro maydonda ekstremizm va terrorizm tahdidini bartaraf qilish borasida O'zbekiston Respublikasi ham o'z tashabbuslarni bildirmoqda va ekstremizm, xalqaro terrorizm, odam savdosi, narkobiznes kabi xavflarga qarshi kurash jarayonida Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishida o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda.


Terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishda turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bularga misol qilib,

-din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish shakllari. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani, bugungi kunda ularni turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh obyektiga aylanishiga olib keladi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlam ekani inobatga olinib ular bilan bugungi kunda terrorizm va ekstremizm qarshi kurashish va ularning oldini olish ishlari bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlar olib borilmoqda.

-yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha internetda eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan va shuning oldini-olish maqsadida yoshlarni internet tarmoqlaridan foydalanishini inobatga olib diniy bilimga va litsenziyaga ega bo'lgan Imomlarga o'zlarining targ'ibot ishlarini ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshirish va ularga to'g'ri bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib berish hisoblanadi.

Keyinchalik hozirgi kunda amalga oshirilayotgan terroristik holatlar turli-xil hududlarda amalga oshirilmoqda. Bularni bizlar ushbu rasmda buning guvohi bo'lamiz(1-rasm).



Ushbu rasimga nazar tashlaydigan bo'lsak, unga ko'ra eng ko'p terroristik harakatlar amalga oshirilgan hudud sifatida Afg'oniston, Suriya va Afrikaning g'arbiy taraflarini aytib o'tsak bo'ladi.

Global terrorizm indeksining 2023-yil hisoboti bo'yicha quyidagilar holatlar ko'rsatib o'tilgan.

- O'lim darajasi 26% ga oshgani sababli hujumlarda o'lim darajasi oshganligi;
- Terrorchilik qurbonlari soni 9 foizga kamaydi, garchi bu Tolibonning terror guruhidan davlat aktyoriga o'tgani bilan bog'liqligi;
- Afg'onistondan tashqarida, dunyoning qolgan qismida terrorizm qurbonlari soni 4 foizga oshganligi;
- “Islomiy davlat” (ID) va uning bo'linmalari 2022-yilda ketma-ket sakkizinchi yil davomida 21 mamlakatda hujumlar uyushtirgan holda dunyodagi eng halokatli terrorchi guruh bo'lib qolganligi;
- Dunyo bo'ylab noma'lum jihodchilarning hujumlaridan o'lganlar soni 2017-yilga nisbatan sakkiz baravar ko'p, bu terrorizm qurbonlarining 32 foizini va Sahelda 18 barobar ko'payganligi;

- Sahel eng ko'p zarar ko'rgan mintaqa bo'lib, global terrorizm qurbonlarining 43 foizini tashkil etadi, bu o'tgan yilga nisbatan 7 foizga ko'payganligi;
- G'arbda kamayib borayotgan terrorizm boshqa mintaqalarda ham kuchaygan hujumlar bilan kutib olinmoqda;
- Terrorizm ekologiyasi yomon bo'lgan va iqlim ta'siriga uchragan mamlakatlarda avj olmoqda;
- Drone texnologiyasi va undan foydalanish, ayniqsa ISHID, Boko Haram va Hutiyalar kabi guruhlar bilan tez rivojlanishda davom etmoqda.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsam, hozirda terrorizm va ekstremizm jinoyatlariga qarshi murosasiz kurash muhitini yaratmas ekanmiz ushbu jinoyatlarning oldini olish imkonsiz bo'lib qolishini inobatga olgan holda, bugungi kunda boshqa davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasida ham bu kurashda o'z pozitsiyasiga ega mamlakat sifatida xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro manfaatli tashqi siyosatni amalga oshirmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar terrorizmning rivojlanishiga to'sqinlik qilgani tufayli O'zbekiston terrorizm xavfidan holi, eng xavfsiz mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Biroq mamlakat ichida va tashqarisida diniy radikallashuv xavfining mavjud ekani muammoning sabablarini muntazam tahlil etish va kompleks chora-tadbirlarni tashkil etishni taqozo qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-yil 3-4-mart kunlari Toshkent shahrida "BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi" mavzusida o'tkaziladigan xalqaro konferensiya
2. Mirziyoyev Sh.M "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash — davr talabi" mavzusida anjumandagi nutqi
3. "The Global Terrorism Index" saytidan statistik ma'lumotlar
4. Vikipediya: https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa